

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "JAJMAN" HIKOYASIDA RAMZLAR TAHLILI

Fayzullayeva Sabina Begzod qizi

Kattaqo'rg'on davlat Pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalish 3- bosqich talabasi.

sfayzullayeva525@gmail.com

Suyunova Gulyuz Rahmiddin qizi

Kattaqo'rg'on davlat Pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyot yo'nalish 3- bosqich talabasi.

suyunovagulyuz37@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20214546>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Istiqloq davri o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega Jurnalist va yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasi tahlilga olindi. Ushbu hikoyada ramziy obrazlar orqali yetkazib berilgan bir hikoyada aslida "Jajman" deb nomlangan rasmiy obraz orqali aslida ijodkor "nafs" degan yomon illatni nazarda tutgandir? Maqolda shular tahlilga olinadi.

Kalit so'zlar. Xurshid Do'stmuhammad, Jajman, nafs, majoz, bozor, yaxshilik va yomonlik.

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ "Jajman" журналиста и писателя Хуршида Достмухаммада, занимающий важное место в узбекской литературе периода независимости. В этом рассказе, передаваемом посредством символических образов, действительно ли автор подразумевал злой порок «самости» через официальный образ "Jajman"? Эти вопросы анализируются в контексте пословицы.

Ключевые слова. Хуршид Достмухаммад, Джаджман, нафс, базар, добро и зло.

Abstract. This article analyzes the story "Jajman" by the journalist and writer Khurshid Dostmuhammad, which has its place in Uzbek literature of the Independence period. In this story, a story conveyed through symbolic images, did the author actually mean the evil vice of "self" through the official image called "Jajman?" These are analyzed in the proverb.

Keywords. Khurshid Dostmuhammad, Jajman, nafs, bazaar, good and evil.

KIRISH. Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: "So'nggi yillardagi bizdagi adabiy jarayonga xos eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, adabiyotimiz chinakkamga xilma xil bo'lib bormoqda. Bizda ham falsafiy asosi jihatidan xilma xil yo'nalishga mansub asarlar paydo bo'la boshladi". Shu nuqtai nazardan Xurshid Do'stmuhammad ijodida ham bu xususiyatni bevosita kuzatishimiz mumkin. Uning "Jajman" nomli hikoyasi 1997- yilda yozilgan hisoblanadi.

Yozuvchining "Jajman" hikoyasida o'ziga xos xarakterini yoritib beradi.

Agarda "bozor", "bozor hayoti", "insonning kunlik tashvishi" tasvirlangandek, ammo "bozor"-bu kunlik hayotimiz, unda ramziylik mavjud bo'lsa, "Jajman"da majoziylikni ko'ramiz: "Hademay, tong otadi, olam nurga to'ladi ... Odamlar uyg'onadi, bozor uyg'onadi .. til darvozasi lang ochiladi, g'ala-g'ovur boshlanadi .. tumonat toshib-shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi ... sotuvchi keladi, xaridor keladi, bekorchi keladi ... oyoqlar tinmaydi, qullar tinmaydi, og'izlar tinmaydi ... kiraveradi-chiqaveradi, kiraveradi-chiqaveradi ... olayotgan pulim deydi, sotayotgan molim deydi ... tirikchilik bilan basharning tumshug'idan jilov o'tkazib yetovga soladi ... "bozor"

deya atalmish tovacha solib aylantiraveradi”. Hikoya qahramoni Zardo’sht bobo tilidan aytilgan bu fikrlarda ramziylik, yashirin ma’no, chuqur falsafiy tushunchalar o’z ifodasini topganligini guvohi bo’lamiz. Kitobxon yuqoridagi talqinlarni o’qir ekan, bozor-bu hayot demakdir,-degan tushunchaga boradi. Nima uchun inson tongdan to kechga qadar tinimsiz izg’iydi, bozorda esa turfa xil xarakter egalarini uchratamiz, ular qayergadir shoshar, sotuvchi esa o’z molini o’tkazishga urinar, o’z foydasini o’ylar, shu orqali kun o’tkazishi tabiiy.

Ammo bu o’rinlarda insonning hayotini o’zi bozor jonligini, bozorda turli xarakter egalari bo’lgani kabi, inson hayoti ham bir tekis emas, u bazan adolatsizlikdan iztirob chekadi. Hayotdagi ziddiyatlargina emas, uning o’z ruhiyatidagi ziddiyatlari ham mavjud bo’lganidek, jamiyat ham inson tafakkuri orqali o’zgarib boradi. Mazkur hikoya tilga olingan “Jajman” aslida nima edi? Yozuvchi bu bilan nima demoqchi bo’lgan? Bu hikoyani o’qigan odamda bunday savollar tug’ilishi tabiiy holat. Sababi asarda aytilgan “Jajman” ni hamma ham tushunmasligi ramziylikni ko’ra olmasligi mumkin. “Jajman” hikoyasida yovuzlik deya nafs balosiga, ezgulik deb insonning nafs ustidan qozonadigan g’alabasiga nisbatan aytilmoqda. Jajman bir qarasa sichqonday, bir qarasa tulkiday tovlanuvchi mavjudot. U majoziy ma’noda nafsga ishora qilmoqda.

Majoz (alligoriya)-ramziy bir ko’rinish bo’lib, voqea-hodisa yoki narsa-buymning mavhum tushunchasi o’rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so’z(obraz)ni qo’llash, ya’ni adabiy asarda o’quvchiga noaniq bo’lgan tushunchani ko’pchilikka ma’lum bo’lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli.

Hikoyada tilga olinishi bo’yicha “Jajman” eng avvalo “Tim” da ya’ni bozorda paydo bo’ladi. Nega aynan bozor? “Tim” dagi ramziylik aslida boy ham kambag’al ham bozorda bir xil.

Nafsig qul insonlarning barchasi bozorda desak noto’g’ri bo’lmaydi. U yerda hamma o’z manfaatlarini o’ylab kimdir sotib olish uchun yolg’on ishlatsa, kimdir xaridorga sotish uchun uni aldaydi. Hikoyadagi bosh qahramonlardan yana biri bo’lgan Zardusht bobo tilidan aytilgan fikrga e’tibor beraylik: -” Hamma o’zi bilan ovora... tiriklik tashvishi... sotish, sotish, sotish...uyum-uyum pista, bodom, turshagu mayizni sotish, pulga chaqish dardida bari...”

Hademay, tong otadi, olam nurga to’ladi... Odamlar uyg’onadi, bozor uyg’onadi... tim darvozasi lang ochiladi, g’ala-g’ovur boshlanadi... tumonat toshib-shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi... sotuvchi keladi, xaridor keladi, bekorchi keladi... chumoli bo’lib keladi... chumoli bo’lib chiqadi... oyoqlar tinmaydi, qo’llar tinmaydi, og’izlar tinmaydi... kiraveradi-chiqaveradi, kiraveradi-chiqaveradi... olayotgan pulim deydi, sotayotgan molim deydi... tirikchilik bani basharning tumshug’idan jilov o’tkazib yetovga soladi... «bozor» deya atalmish tovaga solib aylantiradi, aylantiraveradi... qumursqa tutganini changallaydi, tutganini iniga ta-shiydi, tashiyveradi... olish-sotish, olish-sotish, olish-sotish... qo’lga, tilga ilnngan nima narsa borki, sotiladi... yo, alhazar, Axuramazda!.. Ojizlar olovga muhtoj, Axuramazda!.. [1.1-3b].

Bunda ham ko’rish mumkinki bozorga hamma o’z manfaatlarini, ehtiyojlarini qondirish maqsadida boradi. Hikoyadagi “Zardusht” ismli boboga to’xtalsak... Bu ismdagi ramziylik nimada? Asar davomida u insonlarni “Jajman”ni ya’ni nafsning quli bo’lmaslikka chaqiradi, ammo afsuski uning gaplarini o’zidan boshqa hech kim eshitmaydi. Zardushtiylik dinining asoschi Zardushtni (yakka tangri g’oyasini targ’ib etgan ammo juda kamchilik unga ergashgan deb qaraladi tarixda) ham hech kim ishonmaydi, yaxshilikni targ’ib qilsada juda kamchilik unga

ergashadi. - “Yaxshilar toblansinlar... “Yaxshilar poklansinlar”, deb iltijo qiladigan insonlar yaxshi inson bo‘lishga yaxshilik qilishga undagan Zardusht bobo ham shunday vaziyatda qoldi. “Hikoyada keltirilgan timdagi odamlar bilan jajman o‘rtasidagi munosabat go‘yoki, Axuramazda va Axriman o‘rtasidagi kurashga ishora sifatida keltirilgandek. Zardusht bobo rastasi yoniga to‘shalgan ko‘rpachaga obdon joylashib cho‘k tushayotib, bir narsadan xavotirlangandek: “O‘zing madadkorsan, Axuramazda...”. Hikoyada birgina Jajman obrazi orqali insonga xos bo‘lgan ayrim salbiy holatlar, ojizlik jihatlari ham real

tasvirlarda o‘z ifodasini topadi. Ojizlik jihatlari deganimizda insonlarning gohida sinovlar oldida ilojisiz qolishlarini nazarda tutyapmiz. Sababi, hikoyada timdagi odamlar ham ilojisiz va ojiz qoladilar.” [2.1-b] Insoniyat juda murakkab yaralgan. Negaki, asardagi - “Indamadik. Keyin sezib-sezmay erkatoymizga aylantirdik...

Zardusht boboning yuziga mayin tabassum yugurdi. Jajman sekin-asta timdagilar bilan apoq-chapoq bo‘lib ketgan davrlarni eshladi.

...Maxluq ko‘rindi deguncha «Ma, Jajman, ma!», deb unga mayiz, pista, yong‘oq tashlaydiganlar chiqdi. Jajman hech kimdan tap tortmas, xash-pash deguncha «xayr-sadaqa»ni yeb xaltasiga solib bitirar, turshakni goh danagi bilan yutib yuborar, goh qarsillatib chaqib, mag‘izini chapillatib chaynar edi. Uning zig‘irdek qo‘li, barmoqlari, zig‘irdek tumshug‘iyu sichqonnikidek og‘ziga, mog‘or tusidagi mitti ko‘zlariga qarab... bozorchilar kulgani kulgan edi, bora-bora uning yeb-to‘ymasligidan, ochofatligidan yumalab-yumalab kulib, vaqtichog‘lik qiladigan bo‘ldilar.

«Uni men to‘ydiraman! Yo‘q, qorni yorilib ketguncha men boqaman uni!», deb bahs boylaydiganlar chiqdi, lekin har safar «To‘ydiraman!», deb katta ketganlar chuv tushaverdi, Jajmaning yeb-to‘ymasligi sirligicha qolaverdi...” [1.3-4b]. Tahlildagi jumalarga e‘tibor bersak...

Insonlar oldin “Jajman” ni ya‘ni nafsni o‘zlari rag‘batlantirdi, o‘zlari uni “erkatoylariga” aylantirib olishda. Uni to‘ydirishdi, erkalatishdi, keyin esa o‘zlari uni haydashga, o‘ldirishga qaror qilishdi. Barcha eshiklarni inson nafsiga avval o‘zi ochib beradida, keyin oqibatiga nafsni shunchaki aybdor qilib qo‘yishadi. Agar jajmanga boshidan bosh qarshi kurashganlarida edi, balki u bunchalik ochko‘z bo‘lib ketmagan bo‘lard. Insoniyat bor ekan doimo nafs degan narsa ham yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ziddiyat ham bo‘laveradi. Hamma ham o‘z nafsiga qarshi kurasha olmaydi, hamma ham faqat yaxshilik qilish yo‘lidan keta olmaydi.

Nima uchun hikoya bunday nom oldi?

“Jajman” so‘zining izohini so‘rashganida adib “Muxlislar adabiy uchrashuvlarda, gurunglarda shu savolni ko‘p berishadi, ammo men har gal javobsiz qoldiraman. Bu mening sirim, hikoyaning jozibasi shunda. O‘quvchi o‘zi o‘ylab topsin”-deya javob beradi.

Tadqiqotchi olimlar ham bu masala borasida ko‘p mulohazalar yuritishgan. N.Dovurboyeva Jajman atamasini “jajji” hamda “ya‘juj- majuj”dan yasalgan, qabilida taxmin qiladi. Har holda uning izlanishlari e‘tiborga loyiq. Ana shu yo‘nalishdagi kuzatuv usullarini Ulug‘bek Hamdam, Jabbor Eshonqul, O‘rol Sodiq kabi adabiyotshunoslar tadqiqotlarida ham uchratamiz.[3.2-3b]

Atrofimizdagi insonlar o‘rtasida “j”lovchi va “y”lovchi sheva vakillari ham uchrab turadi.

Issiq nonning orasini ajratib olib, unga saryog‘ni aralashtirib iste‘mol qilishni “yajman” deb atashganini ham eshitganmiz, albatta.

O‘z-o‘zidan yajman va jajman o‘rtasida qandaydir bog‘liqlik bordek tuyuladi. Shuningdek, “jajman” va “jajji man” so‘zlari orasida ham o‘xshashlik borligi seziladi. Sababi, jajman haqiqatdan ham juda kichkina, atigi bir qarich. Biz xohlaymizmi, yo‘qmi “Jajman” hikoyasi ham o‘xshashliklardan holi emas. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa”sidan joy olgan "Saddi Iskandariy" dostonining “Iskandar devorining qurilishi” deb nom olgan qismida devsfifat Axriman va yeb to‘ymas mahluq - ya‘juj-majujlar keltirilgan. A.Navoiy ularni “biri bir qarish bo‘lsa, yana biriniki o‘n quloq” - deya ta‘riflaydi. X.Do‘stmuhammad ham jajmanning bir qarich ekanligini qayd etadi. Bu o‘z-o‘zidan har ikkala ijodkorning bir maxluq haqida fikr yuritayotganini belgilaydi.[4.2-b]

Hikoyada ramzli obrazlar mahorat bilan tanlangan har bir obrazning ramzliligi uning ruhiyatini ham ochib bergan. Ba‘zi bir obrazlar asarda salbiy obraz sifatida tasvirlanishiga qaramay, aslida u asar mohiyatini va g‘oyasini tashkil etishda asosiy yuk tashishi mumkinligini muallif aynan, "Jajman" obrazi orqali ifodalashga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Agar jajman so‘ziga boshqacha yondashadigan bo‘lsak, “jajji man”, “jajji men” degan bir ma‘no kelib chiqadi. Bu obrazni bir qarashdayoq nimaning ramzi ekanligini bilgandek bo‘ladi kitobxon, chunonchi, u ochko‘zlik, tekinxo‘rlik nafs ramzi, bir so‘z bilan norealistik obraz deyish mumkin.

Haqiqatan ham, nafs insonning bir bo‘lagi. Qarashlarimizning lekin tomoni ham borki, jajman o‘z ko‘rinishi orqali sotuvchi va xaridorlarni ogohlantiryapti, yaxshilikka, halollikka chaqiryapti. Bu esa obrazning ijobiy tomoni va yozuvchining ramzli obraz yaratishda alohida mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Bu hikoya haqida matbuotda yaxshi fikrlar aytiladi. Xususan, iste‘dodli adabiyotshunos G.Sattorova hikoyadagi yozuvchining voqelikni badiiy aks ettirishdagi obrazlar talqini uslubi haqida to‘xtalar ekan, undagi badiiy obrazlar qanday holatda tasvir etilmasin ularda “milliy karakter yaratish yetakchilik” qilishni to‘g‘ri qayd etadi.

Rus adabiyotshunosi N. Dragomiretska: “Obraz voqelikni badiiy aka ettirish shakli, karakter esa obraz mazmuniga mansub kategoriyadir”,-deb yozadi. Uning ta‘kidlashicha, karakter yaratishda yozuvchilar turli usullardan foydalanadilar:

- a) bir toifa yozuvchilar badiiy karakter xususiyatlarini personaj nutqi orqali aks ettiradilar;
- b) boshqa yozuvchilarda badiiy obrazning ma‘lum predmetga munosabati karakter yaratishda yetakchilik qiladi;
- v) uchinchi bir toifa yozuvchilar badiiy obrazlarni tabiat qo‘ynida tasvirlash orqali karakter yaratadilar. Xurshid

Do‘stmuhammad "Jajman" hikoyasida yuqoridagi uch xususiyat birlashib yangi bir tamoyil badiiy obrazlarni g‘ayrioddiy vaziyatlar qurshovida tasvir etish orqali milliy karakter yaratish tamoyilini yuzaga keltiradi.

METODOLOGIYA.

Mazkur maqolani yozishda badiiy tahlil, qiyosiy-tipologik, psixologik va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Hikoyadagi obrazlar tizimi, muallifning badiiy tasvir vositalari hamda ramziy ifoda usullari ilmiy jihatdan o‘rganildi.

Psixologik tahlil metodi yordamida qahramonlarning ichki kechinmalari va ruhiy holati ochib berildi. Qiyosiy-tipologik metod asosida esa “Jajman” hikoyasidagi ma’naviy muammolar zamonaviy o‘zbek nasridagi boshqa asarlar bilan qisman solishtirildi. Shuningdek, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini yoritishda adabiyotshunos olimlarning ilmiy qarashlariga ham murojaat qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI. Tahlillar natijasida “Jajman” hikoyasi zamonaviy o‘zbek nasrida inson ruhiyati va ma’naviy muammolarni yorituvchi muhim asarlardan biri ekanligi aniqlandi. Asarda nafs va ma’naviy insonlarning zaif ekanligi muammosi ramziy obrazlar orqali chuqur ifodalangan. Shuningdek, hikoyada psixologik tasvirning ustuvorligi yozuvchining individual uslubini namoyon qilishi kuzatildi. Muallif insonning ichki olamini ochishda ramziy va falsafiy tasvir vositalaridan samarali foydalangan.

XULOSA. Istiqloq davri o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega ijodkor Xurshid Do‘stmuhammadning “Jajman” hikoyasini tahlilga olar ekanmiz, undagi asli Jajman nima ekanligini o‘zimizcha tushunib olishimiz kerak bo‘ldi. Aslida Jajman deya tilga olinayotgan narsa har birimizning hayotimizda, bizda mavjuddir. Yozuvchi ham aynan hikoya orqali insoniyatga bir ko‘zgu qilmoqchi bo‘lgandir. Bu asarni o‘qiyotgands har bir o‘qirman o‘zining dunyoqarashidan kelib chiqib xulosa qiladi. Muallif ramziy obrazlar va psixologik tasvir vositasida o‘quvchini mushohadaga undaydi. Hikoya bugungi jamiyat va insoniyat uchun ham dolzarb bo‘lib, undagi ramziy obrazlar ijodkorning xarakter yaratish mahoratini namoyon etib bergan. Balki yozuvchi bu asar orqali yetkazib bermoqchi bo‘lgan narsasini qandaydir psixologik usullar orqali yetkazib bera olgan bo‘lsa, yozuvchi o‘z maqsadiga yetgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xurshid Do‘stmuhammad “Jajman” hikoya
2. Doniyorova Sh. // ”Bozor”romani haqida yana bir gap //Sharq yulduzijurnali, 2001, 4son
3. Do‘stmuhammad X. “Ijod- ko‘ngil munavvarligi”. T., “Mumtoz so‘z”, 2001
4. Fatullayeva Nilufar Oqiljon qiziDenov tadbirkorlik va pedagogika universiteti,magistratura bo‘limi O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi1-kurs magistranti “JAJMAN” HIKOYASI SUJETIDA REAL VA NOREAL UNSURLARNING BADIY MANTIG‘I” Modern Science and Research jurnali
5. Qosimov Abdug‘apir Abdukarimovich
6. FarDU professori, filologiya fanlari doktori
7. Tursunaliyeva Sadoqat Shokirjon qizi
8. FarDU 2-kurs magistranti. “HOZIRGI O‘ZBEK HIKOYALARIDA NOAN‘ANAVIY TASVIR
9. TAMOYILLARI” maqolasi Oriental Renaissance: Innovative,
10. educational, natural and social sciences jurnali.
11. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Noshir. Toshkent:2019.
12. <https://tafakkur.net/>
13. www.pedagoglar.org
14. <https://scientific-jl.com/>